

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

**SHARQ FILOLOGIYASI VA FALSAFA FAKULTETI
ERON-AFG‘ON FILOLOGIYASI KAFEDRASI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

DARIY TILIDA KO‘CHIRMA VA O‘ZLASHTIRMA GAP

Bajardi: «Sharq filologiyasi» ta’lim
yo‘nalishi bitiruvchisi IV kurs dariy-ingliz
guruhi talabasi
Irgasheva Maxsuda Abdunosirovna_____

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari doktori,
professor
Abdurahim Mutalovich Mannonov _____

Toshkent – 2012

Ushbu bitiruv malakaviy ishida dariy tilida ko‘chirma gap va muallif gapining tuzilish hamda sintaktik xususiyatlari o‘rganilgan, dariy tilida o‘zlashtirma gapning ifodalanishi tadqiq etilgan.

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etiladi:

Sharq filologiyasi va falsafa fakulteti dekani:		Eron-afgʻon filologiyasi kafedrasi mudiri:
_____ fil.f.n., dots. J.T. Ziyamuhamedov		_____ fil.f.n, dots. X.Z.Alimova
«_____» _____ 2012 yil		«_____» _____ 2012 yil

DARIY TILIDA KO‘CHIRMA VA O‘ZLASHTIRMA GAP

KIRISH

I BOB. DARIY TILIDA KO‘CHIRMA GAPLI TUZILMALAR

- 1.1. Ko‘chirma gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari.
 - 1.1.1. Darak-ko‘chirma gap.
 - 1.1.2. So‘roq-ko‘chirma gap.
 - 1.1.3. Buyruq-ko‘chirma gap.
 - 1.1.4. Undov-ko‘chirma gap.
- 1.2. Ko‘chirma gaplarning tuzilish xususiyatlari.
- 1.3. Ko‘chirma gapda gap bo‘laklarining tartibi.
- 1.4. Muallif gapining sintaktik xususiyatlari.
 - 1.4.1. Muallif gapining tuzilish xususiyati.
 - 1.4.2. Muallif gapida gap bo‘laklarining tartibi.
- 1.5. Muallif gapi bilan ko‘chirma gapni biriktiruvchi vositalar

II BOB. DARIY TILIDA O‘ZLASHTIRMA GAP VA UNING IFODALANISHI

- 2.1. Darak mazmunini ifoda etuvchi ko‘chirma gap asosidagi o‘zlashtirma gap.
- 2.2. So‘roq mazmunini ifoda etuvchi ko‘chirma gap asosidagi o‘zlashtirma gap.
- 2.3. Buyruq mazmunini ifoda etuvchi ko‘chirma gap asosidagi o‘zlashtirma gap.

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

KIRISH

Mustaqil O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan kun sayin rivojlanib va mustahkamlanib borayotgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalari chet tillarni o'rganishni hamda ulardan amaliy foydalana bilishni taqozo etmoqda. Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek, «Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. ...Jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir»¹.

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so'ng hukumatimiz xorijiy tillarni o'rganishga keng yo'l ochib berdi. Hozirgi kunda yurtimizda g'arb tillari bilan birgalikda sharq tillarini o'rganishga ham katta e'tibor berilmoqda. Xususan, janubiy qo'shnimiz Afg'oniston islom davlatining asosiy davlat tillaridan biri – dariy tilini o'rganish, mazkur til bo'yicha ilmiy izlanish olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzuning dolzarbligi. Ko'chirma gapli tuzilma ikki komponentdan iborat bo'lib, biri ko'chirma gap, ikkinchisi muallif gapi deb yuritiladi.

Rus tilshunosligida ko'chirma gapli tuzilma maxsus tekshirish ob'ekti sifatida M.K. Milix tomonidan o'rganilgan². Uning ishida ko'chirma gapni kirituvchi fe'llarning semantikasi, ko'chirma gap bilan muallif bayoni orasidagi munosabatlar, ko'chirma gap ichiga yangi qatlamli ko'chirma gapning kiritilishi kabi masalalar o'rganilgan. M.K. Milix ko'chirma gap bilan muallif gapi butunligini aks ettiruvchi «ko'chirma gapli tuzilma» terminini qo'llaydi³.

Umuman olganda, rus tilshunosligida ko'chirma gapli tuzilma ancha mukammal o'rganilgan⁴.

¹ Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: Sharq, 1997. - B.185.

² Милих М.К. Конструкция с прямой речью в современном русском языке: Автореф. дис. ...докт. филол. наук.– Л., 1962.

³ Ko'rsatilgan avtoreferat. – B.4.

⁴ Bu haqda qarang. Saidniyozov A. Hozirgi zamon o'zbek tilida ko'chirma gapli konstruksiyalarning sintaktik

Hozirgi o'zbek adabiy tilining kursiga bag'ishlangan ayrim ishlarda, monografiyalarda, oliy o'quv yurtlari darsliklarida ko'chirma gapli tuzilmalar va o'zlashtirma gap masalasi juda qisqa, umumiy ma'lumot tarzidagina bayon qilinadi⁵.

Ko'chirma gap bilan muallif gapi bir butunlik holida tasavvur qilinadi. Grammatik adabiyotlarda bu butunlik faqat ko'chirma gap termini bilan berilgani uchun butunlikning ikkinchi komponenti – muallif gapi bu termin doirasiga kirmay qoladi. Shuning uchun ko'chirma gapli tuzilma terminini qo'llash har jihatdan maqsadga muvofiq.

O'zbek tilshunosligida ko'chirma gap bilan muallif gapi sintaktik birlik ekanligi professor M.A. Asqarovaning ko'chirma gapga bergan ta'rifida hisobga olingan: «Boshqalar fikrining semantik, leksik, grammatik xususiyatlar saqlangan holda, mustaqil gap shaklida avtor gapi bilan birga ishlatilishiga ko'chirma gap deyiladi»⁶. A. Saidniyozovning fikricha, «... bu ta'rif oxiriga «konstruksiya» so'zi kiritilib, «... ko'chirma gapli konstruksiya deyiladi» deb qayd qilinsa, ta'rifda aks etgan ko'chirma gap bilan avtor gapi o'zaro munosabatdoshligi yana ham yaqqolroq qamrab olingan bo'lar edi»⁷.

Akademik A. Hojievning «Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati»da ko'chirma gap va ko'chirma gapli tuzilma alohida lingvistik termin sifatida izohlanadi. «**Ko'chirma gap.** Lug'aviy va grammatik xususiyatlari o'zgartirilmay, aynan o'zicha berilgan o'zganing gapi». «**Ko'chirma gapli tuzilma.** Muallif gapi bilan ko'chirma gapdan tashkil topgan sintaktik tuzilma. Bunday tuzilmalar qo'shma gapning alohida turi deb qaraladi»⁸. Shuningdek, **muallif gapi** «ko'chirma gapli tuzilmalarda muallifning o'zi aytgan (ko'chirma

xususiyatlari: Filol. fanlari nomzodi ... dis. – Toshkent, 1974.

⁵ Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М.-Л., 1960. – С.421-422; Asqarova M. Hozirgi zamon o'zbek tilida qo'shma gaplar. – Toshkent, 1960. – B.114-133; G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. – T.: O'qituvchi, 1965. – B. 293-309; Решетов В.В. Основы фонетики и грамматики узбекского языка. – Ташкент, 1965. – С.232; Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. – T.: Fan, 1966. – B. 490-504; Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O'zbek tili. – Toshkent, 1966. – B.255-259; O'zbek tili grammatikasi. Sintaksis. – T.: Fan, 1976.

⁶ G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. – T.: O'qituvchi, 1965. – B. 294.

⁷ Saidniyozov A. Hozirgi zamon o'zbek tilida ko'chirma gapli konstruksiyalarning sintaktik xususiyatlari: Filol. fanlari nomzodi ... dis. – Toshkent, 1974. – B.10.

⁸ Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – B.55.

gapdan tashqari) gap»⁹ deb sharhlanadi.

Dariy tilida ko‘chirma gapli tuzilma va o‘zlashtirma gap tadqiqot ob’ekti bo‘lmagan. Dariy tilida punktuatsiya qoidalarining ishlab chiqilmagani, har ikki holat uchun ^ك ke bog‘lovchisining ishlatilishi mumkinligi ba‘zan bunday gaplarni tarjima qilishda anglashilmovchiliklarni ham keltirib chiqaradi. Ko‘rsatilgan va o‘rganilishi lozim bo‘lgan jihatlar tadqiqot ishi mavzuining **dolzarbligini** belgilaydi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. «Dariy tilida ko‘chirma va o‘zlashtirma gap» mavzusida shu kunga qadar ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar olib borilmagan. Mazkur ish bu mavzu bo‘yicha dastlabki amaliy ishdur.

Bitiruv malakaviy ishining manbalari. Tadqiqotga manba sifatida oxirgi 10-15 yil ichidagi badiiy va rasmiy uslubga xos materiallar jalb qilindi. Mualliflarning aksariyati afg‘on adabiyoti shakllanishida munosib o‘rin tutadi (A.R. Zaryob, S.R. Zaryob, A. Habib, B. Arg‘and va boshqalar). Bu materiallar internet saytlari (www.afghanasamai.com, www.afghanpaper.com, www.afghana.com, www.kabolnath.de) orqali olindi.

Ishning maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi dariy tilida ko‘chirma gapli tuzilmalar va o‘zlashtirma gaplarning ifodalanishini tadqiq etishdan iborat. Ushbu ishni amalga oshirishda quyidagi vazifalarni belgilab oldik:

1. Ko‘chirma gap va muallif gapining tuzilish xususiyatlarini o‘rganish.
2. Ko‘chirma gap va muallif gapida gap bo‘laklarining tartibini tahlil qilish.
3. Muallif gapining sintaktik xususiyatlarini yoritish.
4. Ko‘chirma gap bilan muallif gapining o‘rinlashish tartibi va ularni biriktiruvchi vositalarni tahlil qilish.
5. Dariy tilida o‘zlashtirma gapning ifodalanishini tadqiq etish.

Ishdagi ilmiy yangiliklar. Ushbu bitiruv malakaviy ishida dariy tilida ko‘chirma gap va muallif gapining tuzilish hamda sintaktik xususiyatlari o‘rganildi, dariy tilida o‘zlashtirma gapning ifodalanishi tadqiq etildi.

⁹ Ko‘rsatilgan lug‘at. – B. 67.

Ishning amaliy ahamiyati. Mazkur bitiruv malakaviy ishi dastlabki tadqiqot bo‘lganligi sababli, hozirgi dariy adabiy tilida ko‘chirma gapli tuzilmalar, ularning qo‘llanilishida punktuatsiya qoidalariga qay tarzda amal qilinishi, ko‘chirma gapli tuzilmalar va o‘zlashtirma gaplarni tarjima qilishda ahamiyat berilishi lozim bo‘lgan jihatlar haqidagi ma’lumotlar dariy tilini o‘rganuvchilar uchun qator qulayliklar yaratadi.

Ishning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat.

BIRINCHI BOB

DARIY TILIDA KO‘CHIRMA GAPLI TUZILMALAR

Ko‘chirma gapli tuzilmalar tarkibida har bir qism (ko‘chirma gap va muallif gapi) o‘ziga xos sintaktik xususiyatga ega bo‘ladi, ko‘chirma gapda ko‘pincha odatdagi gaplardagi kabi sintaktik holatlar bilan birga o‘ziga xos ayrim xususiyatlar ham mavjud. Shuningdek, muallif gapi ham odatdagi gaplardan ancha farqli grammatik xususiyatlarga ega. Muallif gapi tarkibida kesimlar ma’lum formada, maxsus fe’llar bilan ifodalanadi. Gap bo‘laklarining tartibi ham o‘zgacha bo‘ladi. Muallif gapi tuzilishi ham o‘ziga xos xususiyatga ega. Shularga asoslanib, ko‘chirma gap va muallif gapining o‘ziga xos xususiyatlarini alohida ko‘rib o‘tamiz.

1.1. Ko‘chirma gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari

Ko‘chirma gaplar kuzatilgan maqsadga ko‘ra gaplarning barcha turlaridan: darak, so‘roq, buyruq va undov gaplardan iborat bo‘lishi mumkin. Bu turdagi gaplar so‘zlovchi maqsadining har xil bo‘lishi bilan xarakterlanadi.

1.1.1. Darak-ko‘chirma gap

Darak gap orqali so‘zlovchi biror voqea-hodisa haqida xabar beradi. Darak gapdagi mazmun yo tasdiq qilish yo‘li bilan, yoki inkor etish yo‘li bilan ifodalanadi.

Darak-ko‘chirma gaplarda ham xabar berishning o‘zi turli ottenkalarga ega bo‘ladi: qat’iy ishonch, shubha, taxmin, gumon, istak, ishonchsizlik kabi. Shunga ko‘ra darak-ko‘chirma gaplar quyidagi ko‘rinishlarga ega:

a) sof darak gaplar:

برادرم گردش را کج کرد و آهسته گفت :

– رسم هر چیز را. (سپوژمي زرياب. خروس من// www.afghanasamai.com)

Akam bo‘ynini egib, sekin dedi:

– *Hamma narsaning rasmini.*

... با عجله سوي اتاقلش رفت و شنيدم كه مي گفت :

– معلم ما گفته كه رسم اين خروس را بکشيم. (سپوژمي زرياب. خروس من //

(www.afghanasamai.com

...*shoshib xonasi tomon yurdi va aytayotganini (gapini) eshitdim:*

– *O‘qituvchimiz shu xo‘rozning rasmini chizishimizni aytdi.*

v) darak-istak gaplar.

Darak gapning bu turida fe‘l-kesim shart-istak mayli formasida keladi:

... و زمزمه مي كنند :

– خدا قبول كند...

– خدا قبول كند... (سپوژمي زرياب. خروس من// (www.afghanasamai.com

...*va xirgoyi qiladilar (past ovozda deydilar):*

– *Xudo (dargohida) qabul qilsin....*

– *Xudo (dargohida) qabul qilsin....*

1.1.2. So‘roq-ko‘chirma gap

Ko‘chirma gap kiritilgan maqsadga ko‘ra so‘roq mazmunini ham ifodalaydi:

هيجان زده و يك صدا پرسيديم :

– چه آورده ايد ؟ چه آورده ايد ؟ (سپوژمي زرياب. خروس من// (www.afghanasamai.com

Hayajonlanib baravariga so‘radik:

– *Nima olib keldingiz? Nima keltirdingiz?*

So‘roq gaplar ham modallik darajasiga ko‘ra turlicha ottenkalarga ega bo‘ladi: so‘roq bilan birga taajjub, taxmin, buyurish ifodalanadi. Shu jihatdan so‘roq-ko‘chirma gap quyidagi ko‘rinishlarga ega:

a) sof so‘roq gaplar:

پرسش هميشه گي از دهانم جهيد :

– كار خانه گي ؟ (سپوژمي زرياب. خروس من// (www.afghanasamai.com

Har doimgi savol og‘zimdand chiqib ketdi:

– *Uy vazifasimi?*

b) ritorik so‘roq gaplar:

بي اختيار گفتم :

– چه وقت شام مي شود ؟ (سپوژمي زرياب. خروس من// www.afghanasamai.com)

Beixtiyor dedim:

– *Qachon kech bo ‘ladi?*

خويشاوند ما باز رویش را سوي مادرم کرد و خشمگين گفت :

– روز آخرت همه اين ها يخنش را مي گيرند و مي گویند : حالا که ما را کشيده اي براي ما جان

بده ... آن ها را جان داده مي تواند ؟ (سپوژمي زرياب. خروس من// www.afghanasamai.com)

Qarindoshimiz yana onam tomon yuzlanib, g‘azab bilan dedi:

– *Oxirat kuni bularning hammasi yoqasini oladi va deydi: «Bizni chizdingmi, endi bizga jon ato qil... . Ularga jon bera oladimi?»*

v) so‘roq-buyruq gaplar:

من با درمانده گي چهار طرفم را دیدم – نمي دانستم چه طور نشسته ام که باز فرياد زد و سوي

برادرم دید.

– يادش نداده اند که وقتي مي نشيند ، سينه اش را پيش نکشد. حيا کجاست ؟ (سپوژمي زرياب.

خروس من// www.afghanasamai.com)

Men chorasiz ahvolda to‘rt tarafimga qaradim – qay tarzda o‘tiribman, anglab etmasimdan yana qichqirdi va akamga yuzlandi:

– *O‘rgatishmaganmi, o‘tirganda ko‘kragini oldinga chiqarmaydi. Uyat qani?*

Ba‘zi so‘roq-ko‘chirma gaplarda so‘roq – taajjub, ajablanish, achinish ottenkalari anglashiladi:

انگشت اشاره اش را چون تيغي سوي من نشانه گرفت و پرسيد :

– اي رسم مي کشد؟! رسم چي را مي کشد؟ رسم چي را مي کشد ؟ (سپوژمي زرياب. خروس

من// www.afghanasamai.com)

Ko‘rsatkich barmog‘ini nayzadek men tomon niqtadi va so‘radi:

– *Shu rasm chizadimi?! Nimaning rasmini chizadi? Nimaning rasmini chizadi?*

با تعجب پرسيد :

– چي مي كشد؟! چي مي كشد؟! (سپوژمي زرياب. خروس من//

(www.afghanasamai.com

Taajjublanib so 'radi:

– *Nima chizadi?! Nimani chizadi?!*

So'roq gaplar ba'zan so'roqni ifodalovchi so'zlar yoki elementlar qo'llanmagan holda ham shakllanishi mumkin. Gapdagi so'roq mazmuni so'roq intonatsiyasi bilan ifodalanadi:

حیرت زده سوی شراره نگاه کرده گفتم: «میبینی من میخوانم؟» (ببرک ارغند. شراره.)

Hayratlanib Sharoraga qarab dedim: «Ko 'ryapsanmi, men kuylayapman?»

1.1.3. Buyruq-ko'chirma gap

Bunday gaplarda tinglovchini biror ishni bajarishga buyurish bilan bog'langan mazmun ifodalanadi:

با تأکید به من و برادرم می گفت :

– رسم هاي تان را بکشید! (سپوژمي زرياب. خروس من// (www.afghanasamai.com

Men va akamga qat 'iyat bilan derdi:

– *Rasmlaringizni chizing!*

Buyruq-ko'chirma gap anglatgan mazmuniga ko'ra quyidagi ko'rinishlarga ega:

a) sof buyruq ifodalaydi:

باز آواز دل انگیزش بلند شد :

– چشم ها باز ! (سپوژمي زرياب. خروس من// (www.afghanasamai.com

Yana dilni quvontiruvchi ovozi yangradi:

– *Ko 'zlar ochilsin!*

b) iltimos, maslahat, taklif, istak, maqsad, yalinish, yolvorish kabi ma'nolarni ifodalaydi:

و رویش را سوي من کرد و تضرع آمیز گفت :

– يك ساعت چپ بنشین! (سپوژمي زرياب. خروس من// (www.afghanasamai.com

Va yuzini men tomonga burib o 'tinib dedi:

– *Bir pas jim o 'tirgin!*

مدیر آمرانه گفت :

– بفرمایید ، داخل شوید . (اسدالله حبیب. ترس از تنهایی.)

Mudir buyruq ohangida dedi:

– *Qani, marhamat, ichkariga kiring.*

v) do‘q qilish, qistash ottenkalarini anglatadi:

... برادرم تا آن را دیدسوی مادر اشاره کرد و فریاد زد :

– هله ، هله ، تیز بیا ! بین چه رسمی کشیده ! (سپوژمی زریاب. خروس من

(www.afghanasamai.com //

Akam uni ko‘rgan zahoti onamga ishora qildi va qichqirdi:

– *Bo‘l, tez kel! Qara, qanaqa rasm chizibdi!*

g) chaqiriq, undash mazmunini anglatadi:

و عینک نمره دار و دسته سیاهش را با نوک انگشت باریک و سپیدش بالا بُرد :

«شکر بکش مادر !» (ببرک ارغند. لبخند شیطان.)

Va ko‘zoynagining qora dastasini nozik oppoq barmog‘ining uchi bilan ko‘tardi: «Shukur qil, ona!»

Buyruq-ko‘chirma gaplarda ba‘zan kesimi aniqlik maylida kelib, buyruq anglashilishi mumkin:

نمیدانم چرا به او گفتم: «شراره تو نمرده ای! تو بیضه ای! تو باز تولد میشوی! هزار سال عمر میکنی، هزار سال میخوانی و هزار سال مانند خنده در لبهای مردم میدوی!» (ببرک ارغند. شراره.)

Bilmadim, nima uchun unga dedim: «Sharora, sen o‘lmagansan! Sen tuxumsan! Sen yana tug‘ilasan! Ming yil umr ko‘rasan, ming yil kuylaysan va ming yil odamlar labida tabassum bo‘lib yugurasan!»

Buyruq ifodalovchi grammatik vositalar bo‘lmaganda, buyruq intonatsiyasining o‘zi buyruq-ko‘chirma gapni shakllantiradi:

حرف مادرم تمام نشده بود که باز فریاد خویشاوند ما بلند شد :

– خُرد چیست؟ کجایش خُرد است ؟ همین حالا نکاحش روا ست ! (سپوژمی زریاب. خروس

من//www.afghanasamai.com)

Onamning gapi tugamasdan yana qarindoshimiz faryod ko‘tardi (faryodi ko‘tarildi):

– *Nimasi kichkina? Qayeri kichkina? Hoziroq nikohlash joiz!*

Buyruq-ko‘chirma gap tarkibida undalma va undovlarning ishlatilishi bilan xarakterlanadi. Bu – uning struktur xususiyati.

گفتمش: «آرام باش، برو بخواب!» (ببرک ارغند. شراره.)

Unga dedim: «Tinchlan, bor (qani), uxla!»

دستور خويشاوند ما، تکانم داد.

– بدو، رسم ها را بیاور! (سپوژمي زرياب. خروس من// www.afghanasamai.com)

Qarindoshimizning buyrug‘idan sapchib tushdim:

– *Yugur, rasmlarni olib kel!*

Ko‘chirma gaplar emotsionallikka munosabat jihatidan emotsional gaplar va emotsional bo‘lmagan gaplardan shakllanishi ham mumkin. Yuqorida ko‘rib chiqilgan gaplar emotsional bo‘lmagan gaplardir. Biroq bular kuchli emotsiyaga ega bo‘lish bilan emotsional gapga aylanadi. Emotsional gaplar undov gap deb ham nomlanadi.

1.1.4. Undov-ko‘chirma gaplar

So‘zlovchining ichki his-hayajonini ifodalab keladi:

خويشاوند ما انگشت اشاره اش را تاپ تاپ به سينه اش زد و گفت :

– من خدا را مي شناسم! (سپوژمي زرياب. خروس من// www.afghanasamai.com)

Qarindoshimiz ko‘rsatkich barmog‘ini ko‘ksiga tap-tap urdi va dedi:

– *Men xudoni taniyman!*

Yuqorida sanab o‘tilgan ko‘chirma gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari maxsus undov intonatsiyasi bilan aytilsa, undov-ko‘chirma gapga aylanadi. Undov gaplardagi emotsional ottenkalar gapning yordamchi elementi sanaladi, chunki ba’zi undov-ko‘chirma gaplar asosida so‘zlovchining xabari, so‘rog‘i yoki uning buyrug‘i yotadi.

به تکرار گفت: «غم مخور، من به زودی بر میگردم!» (ببرک ارغند. شراره.)

Takror dedi: «G‘am yema, men tezda qaytaman!» (xabar+emotsiya)

چشمان اشک آلود اشرف اند که برایش می گوید : «بدو! . . . تو خود را از اینجا بکش!»

(ببرک ارغند. لبخند شیطان.)

Olijanob yosh to‘la ko‘zlari unga derdi: «YUgur!... Sen bu erdan ket!»
(buyruq+emotsiya)

Ba‘zan undov-ko‘chirma gaplarda asosiy narsa so‘zlovchining faqat ichki kechinmalarini (sof emotsionallikni) ifodalash bo‘ladi:

و مادرم با شادي و شوقي كه از او بعيد بود ، تقريباً فریاد زد :

– بیشك ... بیشك... (سپوژمي زریاب. خروس من//www.afghanasamai.com)

Va onam unga yot (uzoq) bo‘lgan xursandchilik va zavq-shavq bilan hayqirib yubordi:

– *Albatta... shak-shubhasiz... .*

Undov-ko‘chirma gaplarda ko‘pincha emotsional undovlar ishtirok etadi:

باز آواز خویشاوند ما همه جا پیچید :

– هله ! گوگرد... گوگرد... (سپوژمي زریاب. خروس من//www.afghanasamai.com)

...yana qarindoshimizning ovozi hamma joyni tutdi:

– *Qani! Gugurt... Gugurt... .*

Undov-ko‘chirma gaplarda emotsiyani kuchli ifodalash uchun gap bo‘laklarining inversiya holati ro‘y beradi:

رُمان با این حلاوت آغاز می یابد :

«اینجا نی صدای آذان اس و نی نوبت نان ملا! » (ببرک ارغند. لبخند شیطان.)

Roman shunday yoqimli tarzda boshlanadi: «Bu erda na azon tovushi bor va na olomonning non navbati!»

Bu undov gaplarda emotsionallikni kuchaytirish uchun emfatik urg‘u olgan so‘zni takrorlash, ikki marta (ba‘zan ortiq) ishlatish hollari uchraydi. Masalan:

شراره قاه قاه خندید و باز هم خندید و خندید. گفت:

« وقتی که سرت را بر بالین این تابوت گذاشتی، هزار سال پیش بود. از آن شب هزار سال گذشته

است، هزار سال! » (ببرک ارغند. شراره.)

Sharora qahqaha urib kuldi va yana kuldi, kuldi. Dedi:

«Boshingni tobut tepasiga qo‘yganing ming yil avval edi. O‘sha tundan buyon ming yil o‘tdi, ming yil!»

Ba‘zan undov-ko‘chirma gap aynan takrorlanishi mumkin:

... و سر بخود خشمالود میگفت: « مگر مرده ام را در آغوش بکشند! مگر مرده ام را در آغوش بکشند! » (بیرک ارغند. شراره.)

...va o'ziga o'zi g'azab bilan derdi: «Ammo jasadimni bag'rilariga bossinlar! Ammo jasadimni bag'rilariga bossinlar!»

Ko'chirma gap ifoda maqsadiga ko'ra mustaqil gaplarning aralash turlaridan tuzilishi mumkin:

a) darak va so'roq gaplardan:

با خود گفتم: « راست نمیگوید، آدم یکبار که مرد دیگر زنده نمیشود. او خه مرده است چه طور بر میگردد؟ » (بیرک ارغند. شراره.)

O'zimga dedim: «Rost gapirmayapti, odam bir marta o'lganidan so'ng boshqa tirilmaydi. U o'lgan-ku, qanday qaytadi?»

گفت:

« اتاقت سرد است ... هیزم نداری؟ » (بیرک ارغند. شراره.)

Dedi: «Xonang sovuq.... O'tin(ing) yo'qmi?»

b) darak va undov gaplardan:

و با نوع خود نگری افزود:

« خمیر صدای مرا از بهشت آورده اند. از بهشت! » (بیرک ارغند. شراره.)

O'ziga xos qarash bilan qo'shib qo'ydi:

«Ovozimning loyini jannatdan keltirganlar. Jannatdan!»

v) so'roq va darak gaplardan:

يك باره مثل این که تازه متوجه شده باشد با خشونت گفت :

– این چي طور نشستن است؟ سینه را این طور پیش مي گیرد.... (سپوژمي زریاب. خروس

من//www.afghanasamai.com)

To'satdan endi ko'rayotgandek qo'rslik bilan dedi:

– Bu qanday o'tirish? Ko'krakni bunaqa qilib oldinga chiqaradi....

g) so'roq va buyruq gaplardan:

حرف مادرم تمام نشده بود که باز فریاد خویشاوند ما بلند شد :

– خُرد چیست؟ کجایش خُرد است ؟ همین حالا نکاحش روا ست ! (سپوژمي زریاب. خروس

من//www.afghanasamai.com)

Onamning gapi tugamasdan yana qarindoshimiz faryod ko'tardi (faryodi

ko 'tarildi):

– *Nimasi kichkina? Qayeri kichkina? Hoziroq nikohlash joiz!*

g) darak, so'roq va buyruq gaplardan:

یکبار خواندن را گذاشت، به چشمانم خیره شد و گفت:

« من چنین نغمه میخوانم ... به خاطر داری؟ تو نیز زمانی چنین میخواندی! » (ببرک ارغند.

شراره.)

Bir nafas kuylashdan to 'xtadi, ko 'zlarimga tikildi va dedi:

«*Men shunday yaxshi kuylayman... . Esingdami? Sen ham bir vaqtlar shunaqa kuylarding!*»

d) buyruq va undov gaplardan:

شراره میخواند و بال میزد و میگفت:

« تو هم بخوان، تو هم بال بزن که امشب، شب تولد من است. امشب من هزار ساله

میشوم! » (ببرک ارغند. شراره.)

Sharora kuylardi, (va) qanot qoqardi va derdi:

«*Sen ham kuyla, sen ham parvoz qil (qanot qoq), bu kecha mening tug 'ilgan kunim. Bu kecha men ming yoshga to 'laman!*»

e) buyruq, so'roq va undov gaplardan:

گفت:

« من سه صد و شصت رنگ میخوانم. تو هم میخوانی. بخوان! با من بخوان! چرا خاموش استی،

چرا صدایت بیرون نمیشود؟ تو خه هم صدایی رسا و زیبا داشتی. خمیر صدای ترا نیز از بهشت آورده

بودند! » (ببرک ارغند. شراره.)

Dedi:

«*Men uch yuz oltmish xil kuylayman. Sen ham kuylaysan. Kuyla! Men bilan qo 'shiq ayt! Nega jimsan, nima uchun ovozing chiqmayapti? Sening ham mukammal va chiroyli ovozing bor edi-ku! Sening ham ovozingning loyini jannatdan keltirgan edilar!*»

Ko'chirma gapning darak, so'roq, buyruq va undov gap xarakteriga ega bo'lishi muallif gapi bilan (muallif gapi odatda darak mazmuniga ega bo'ladi) uning mazmunan bog'lanishida ham aks etadi, chunki ko'chirma gap bilan muallif gapining o'zaro munosabatida ma'lum darajada moslik, uyg'unlik bor.

Bunday munosabat ko‘chirma va muallif gaplarning o‘ziga xos sintaktik birlik ekanligini tasdiqlaydi. Bunda muallif gapi kesimi bo‘lib kelgan nutq fe’li ko‘chirma gapga biron jihatdan xarakteristika beradi. SHunga ko‘ra ko‘chirma gap ifoda maqsadiga ko‘ra muallif gapidagi fe’l-kesim bilan uyg‘unlashadi. Masalan, so‘roq ma’nosiga ishora qiluvchi پرسیدن *so‘ramoq* nutq fe’li darak yoki buyruq mazmunidagi ko‘chirma gaplarni emas, balki faqat so‘roq mazmunidagi ko‘chirma gaplarni muallif matniga kiritadi:

دخترم پرسید :

– خوش است ني ؟ خوش آمد ؟ (سپوژمي زرياب. خروس من// www.afghanasamai.com)

Qizim so‘radi:

– *Yaxshi, shundaymi? Senga yoqdimi?*

so‘ramoq fe’lining o‘zigina so‘zlovchining ichki holatini to‘liq aks ettira olmaydi. Bunday paytda so‘roq ma’nosining turli xil ottenkalarini izohlaydigan boshqa so‘zlar ham ishlatiladi, natijada muallif gapi so‘roq-ko‘chirma gapning qanday talaffuz etilganini aniqroq ko‘rsatadi:

هيجان زده و يك صدا پرسيديم :

– چه آورده ايد ؟ چه آورده ايد ؟ (سپوژمي زرياب. خروس من// www.afghanasamai.com)

Hayajonlanib baravariga so‘radik:

– *Nima olib keldingiz? Nima keltirdingiz?*

خويشاوند ما ، رویش را سوي برادرم کرد و با غرشي پرسید :

– چه حال داريد ، خوب هستيد ؟ (سپوژمي زرياب. خروس من// www.afghanasamai.com)

Qarindoshimiz akamga yuzlanib, jerkib so‘radi:

– *Ahvollar qalay, yaxshimisizlar?*

حيران حيران پرسيدم:

« سردت است؟ خنک ميخوری؟ در اين تابستان؟ » (بيرک ارغند. شراره.)

Hayron bo‘lib so‘radim:

– *Senga salqinmi? Sovuq eyapsanmi? Shu yozda-ya?*

Bu misollar ko‘chirma gapning muallif gapiga nisbatan tobe ekanligini ko‘rsatadi, chunki muallif gapi tarkibidagi پرسیدن *so‘ramoq* fe’li ko‘chirma gapning faqat so‘roq gap tipida shakllanishini talab qiladi.

زدن صدا *qichqirmoq; chaqirmoq* fe'li ham ko'pincha buyruq mazmunidagi ko'chirma gapni nutqqa kiritadi. Bunday paytda ko'chirma gap tarkibida undalma, undovlar ishtirok etishi mumkin:

فردا، کاکه مست الست، ... از پشت دیوار قصر بی خوف و بیم صدا میزند :
او بچه حاکم ! او پلو خور ! ما آمديم چي ميگي ؟ (محمد اکرم عثمان . وقتیکه نی ها گل میکنند/
(www.kaboldnath.de

Ertasi Koka mast-alast ... qasr devori orqasidan qo'rqmasdan qichqiradi:

– O', hokimning o'g'li! O', palovxo'r! Biz keldik, nima demoqchisan?

... و از دهن در قهقهه صدا میزند :

خو بچی حاکم باز چی شد که موتاج ما شدی؟ اینه آمديم بگو! (محمد اکرم عثمان . وقتیکه نی ها
گل میکنند/(www.kaboldnath.de

...va darvozadan xoxolab kulib chaqiradi:

– Ha, hokimning o'g'li, yana nima bo'ldiki, bizga muhtoj bo'libsiz? Mana, keldik, gapir!

و صبح ها همینکه لطیف از خواب برمیخواست صدا میزد :

بابه، بابه جان ! بابيم نامده ؟ (محمد اکرم عثمان . وقتیکه نی ها گل میکنند/
(www.kaboldnath.de

Ertalablari Latif uyqudan turgan zahoti chaqirardi:

– Dada, dadajon! Dadam kelmadilarmi?

Demak, muallif gapi tarkibidagi nutq fe'li va izohlovchi so'zlar orqali ko'chirma gapning intonatsiyasi, so'zlovchining ruhiy holati va uning suhbatdoshiga munosabati belgilanadi.

Undov xarakteriga ishora qiluvchi فریاد زدن *qichqirmoq, xitob qilmoq*, فریاد *ovozi* آواز کسی بلند شدن *faryod ko'tarmoq (faryodi ko'tarilmoq)* yoki *ovozi* آواز کسی بلند بلند شدن *ko'tarilmoq (yangramoq)* kabi fe'llar so'zlovchining his-hayajonini, bayon qilinayotgan fikrga uning munosabatini ko'rsatadigan undov-ko'chirma gapni tekstga kiritadi:

... برادرم تا آن را دید سوي مادر اشاره کرد و فریاد زد :

- هله ، هله ، تیز بیا ! ببین چه رسمي کشیده ! (سپوژمي زریاب. خروس

من//www.afghanasamai.com

Akam uni ko 'rgan zahoti onamga ishora qildi va qichqirdi:

– *Bo 'l, tez kel! Qara, qanaqa rasm chizibdi!*

حرف مادرم تمام نشده بود که باز فریاد خویشاوند ما بلند شد :

- خُرد چیست؟ کجایش خُرد است ؟ همین حالا نکاحش روا ست ! (سپوژمي زریاب. خروس

من// www.afghanasamai.com)

Onamning gapi tugamasdan yana qarindoshimiz faryod ko 'tardi (faryodi ko 'tarildi):

– *Nimasi kichkina? Qayeri kichkina? Hoziroq nikohlash joiz!*

باز آواز خویشاوند ما بلند بلند شد :

- مه از خدا بترسم یا شما از خدا بترسید ؟ شما از خدا بترسید که خدا را نمی شناسید... خدا شما را

مي زند. همه تان را مي زند. (سپوژمي زریاب. خروس من// www.afghanasamai.com)

Qarindoshimizning ovozi yanada ko 'tarildi:

– *Men xudodan qo 'rqaymi yoki sizlar xudodan qo 'rqasizmi? Sizlar xudodan qo 'rqing, xudoni tanimaysiz... Xudo sizlarni uradi. Hammangizni uradi.*

و مادرم با شادي و شوقي که از او بعيد بود ، تقريباً فریاد زد :

– بیشک ... بیشک... (سپوژمي زریاب. خروس من// www.afghanasamai.com)

Va onam unga yot (uzoq) bo 'lgan xursandchilik va zavq-shavq bilan hayqirib yubordi:

– *Albatta... shak-shubhasiz... .*

مادرم از زیر چادرش آهسته پاسخ داد :
- شکر خوب هستیم.
برادرم تکرار کرد :
- شکر خوب هستیم. (سپوژمي زریاب. خروس من// www.afghanasamai.com)

Onam chodiri ostidan sekin javob berdi:

– *Shukur, yaxshimiz.*

Akam takrorladi:

– *Shukur, yaxshimiz.*

پدرش جواب میدهد :

-هان همو كوه. (محمد اكرم عثمان وقتيكه نى ها گل ميكنند/ www.kabolnath.de)

Otasi javob beradi:

- *Ha, o'sha tog'.*

Yuqorida ko'rib o'tilgan muallif gapining fe'l-kesimlari ko'chirma gapga nisbatan umumiy ma'no kasb etadi. Bu umumiylik ko'chirma gapning sintaktik strukturasida ham o'z ifodasini topadi.

Ko'chirma gapni tekstga kiritishda eng aktiv qo'llanadigan *demoq* گفتن fe'lidir. Uning ma'nosi juda umumiy bo'lganligidan modallik darajasi va stilistik ottenkasi turlicha bo'lgan har qanday sintaktik strukturadagi ko'chirma gaplarni tekstga kirita oladi. Demak, *demoq* گفتن fe'li yordamida intonatsion ottenkalarga boy bo'lgan darak, so'roq, buyruq gaplar hamda so'zlovchining turli his-tuyg'usini ifodalaydigan undov gaplar kiritiladi:

گفت :

- چوچه ها ، براي تان چيزي آورده ام. (سپوژمي زرياب. خروس من //

www.afghanasamai.com)

Dedi: «Bolalar, sizlarga bir narsa keltirdim».

به نظرم آمد كه به من خطاب كرد و گفت :

- رسم هایت را رنگ هم كن . (سپوژمي زرياب. خروس من// www.afghanasamai.com)

Esimga tushdi, menga xitob qilib dedi:

- *Rasmlaringni bo'yagin ham (rasmlaringga bo'yoq ham ber).*

رويش را سوي من كرد و انگار با خود گپ بزند و گفت :

- نظر نشوي ! نظر نشوي !

Yuzini menga qaratdi va xuddi o'zi bilan gaplashayotgandek dedi:

- *Ko'z tegmasin! Ko'z tegmasin! (Ko'z kimga!)*

مادرم باز از جایش پرید. عذر آمیز و ترسیده از زیر چادرش گفت :

- کرده ایم ... حالا می آورم ... زود... (سپوژمي زرياب. خروس

من// www.afghanasamai.com)

Onam yana joyidan sapchib turdi. Iltijo va qo'rquv aralash chodiri ostidan dedi:

– *Pishirganmiz (qilganmiz) ... pishirganmiz... hozir keltiraman... tez...*

خویشاوند ما انگشت اشاره اش را تاپ تاپ به سینه اش زد و گفت :

- من خدا را می شناسم! (سپوژمی زریاب. خروس من// www.afghanasamai.com)

Qarindoshimiz ko 'rsatkich barmog 'ini ko 'ksiga tap-tap urdi va dedi:

– *Men xudoni taniyman!*

Bu misollardagi گفتن *demoq* fe'li ko'chirma gapning sintaktik strukturasini, uning intonatsiyasini belgilay olmaydi. Bunday paytda ko'chirma gapning ifoda maqsadiga ko'ra turi va intonatsiyasi uning sintaktik strukturasini va leksik tarkibi bilan belgilanadi. Turlicha tovlanib turadigan ko'chirma gap intonatsiyasini to'liq tasavvur qilish uchun yuqoridagi shart-sharoitlar etarli darajada bo'lmaganligi sababli, muallif gapiga turli izohlovchi so'zlar kiritiladi. Bu so'zlar گفتن *demoq* fe'lini izohlash orqali ko'chirma gapning qanday talaffuz qilinishi kerakligini qat'iy belgilaydi. Natijada ko'chirma gap bilan muallif gapi o'rtasida ma'lum bog'lanish vujudga keladi. Bu ko'chirma gap bilan muallif gapining o'ziga xos sintaktik birlik ekanligini ko'rsatadi:

ذوقزده می گفتم :

- يك آهو ... يك آهو ... (سپوژمی زریاب. خروس من// www.afghanasamai.com)

Zavqlanib derdim:

– *Bir ohu Bir ohu... .*

بی اختیار گفتم :

- چه وقت شام می شود ؟ (سپوژمی زریاب. خروس من// www.afghanasamai.com)

Beixtiyor dedim:

– *Qachon kech bo 'ladi?*

برادرم گردنش را کج کرد و آهسته گفت :

- رسم هر چیز را. (سپوژمی زریاب. خروس من// www.afghanasamai.com)

Akam bo 'ynini egib, sekin dedi:

– *Hamma narsaning rasmini.*

يك باره مثل این كه تازه متوجه شده باشد با خشونت گفت :

- این چي طور نشستن است؟ سینه را این طور پیش می گیرد... . (سپوژمی زریاب. خروس

من// www.afghanasamai.com)

To 'satdan endi ko 'rayotgandek qo 'rslik bilan dedi:

– *Bu qanday o 'tirish? Ko 'krakni bunaqa qilib oldinga chiqaradi....*

مادر م ... باز لرزان و شکسته شکسته گفت :

- ا.ز... خ... د... ا... بت... رسي... د... از... خدا ... بترسيد... (سپوژمي زرياب. خروس

من//www.afghanasamai.com)

Onam ... yana titrab va tutilib-tutilib dedi:

– *Xudodan qo 'rqing... Xudodan qo 'rqing...*

Maqsadimiz muallif gapining kesimi bo'lib kelgan hamma nutq fe'llarining ko'chirma gap bilan bo'lgan fikriy munosabati, mosligini bayon qilish emas, balki ko'chirma gap bilan muallif gapining o'zaro bog'lanishli munosabatda ekanligi qayd qilib o'tishdir.

Yuqorida qayd qilib o'tilgan misollarda muallif gapining fe'l kesimi so'zlovchining o'z fikrini qay holatda bayon etganini va shunga bog'liq ravishda ko'chirma gap strukturasini belgilab bergan. Demak, ko'chirma gap bilan muallif gapi bitta sintaktik tuzilmaning munosabatdosh qismlaridir.

1.2. Ko'chirma gaplarning tuzilish xususiyatlari

Ko'chirma gap bir so'zdan, bir gap yoki bir necha gapdan, ba'zan butun bir abzatsdan iborat bo'lishi, bir sostavli yoki ikki sostavli gaplardan tashkil topishi mumkin.

Misollar:

رنگش هم رنگ چادر سپیدش شد و بریده بریده گفت :

- داده ام ... مي دهم . (سپوژمي زرياب. خروس من//www.afghanasamai.com)

Rangi oppoq chodrasidek edi va uzuq-yuluq dedi:

– *Berganman... Beraman.*

باز آواز خویشاوند ما بلند بلند شد :

- مه از خدا بترسم یا شما از خدا بترسيد ؟ شما از خدا بترسيد که خدا را نمي شناسيد... خدا شما را

مي زند. همه تان را مي زند. (سپوژمي زرياب. خروس من//www.afghanasamai.com)

Qarindoshimizning ovozi yanada ko 'tarildi:

– *Men xudodan qo 'rqaymi yoki sizlar xudodan qo 'rqasizmi? Sizlar xudodan*

qo‘rqing, xudoni tanimaysiz... Xudo sizlarni uradi. Hammangizni uradi.

گفت:

«من سه صد و شصت رنگ میخوانم. تو هم میخوانی. بخوان! با من بخوان! چرا خاموش استی، چرا صدایت بیرون نمیشود؟ تو خُه هم صدایی رسا و زیبا داشتی. خمیر صدای ترا نیز از بهشت آورده بودند!» (بیرک ارغند. شراره/ 25.03.2004 // <http://rawzana.com>)

Dedi:

«Men uch yuz oltmish xil kuylayman. Sen ham kuylaysan. Kuyla! Men bilan qo‘shiq ayt! Nega jimsan, nima uchun ovozing chiqmayapti? Sening ham mukammal va chiroyli ovozing bor edi-ku! Sening ham ovozingning loyini jannatdan keltirgan edilar!»

Xulosa qilib aytganda, ko‘chirma gaplar tuzilish jihatidan juda xilma-xil bo‘lib, u bir yoki bir necha nisbiy mustaqil gaplardan tashkil topishi, shuningdek, bir sostavli yoki ikki sostavli, to‘liq yoki to‘liqsiz, sodda va qo‘shma gaplardan shakllanishi mumkin.

1.3. Ko‘chirma gapda gap bo‘laklarining tartibi

Muallif o‘zganing gapini hech o‘zgarishsiz bayon qilar ekan, ko‘chirma gapdagi gap bo‘laklarining tartibi ham aynan saqlanadi.

Umuman olganda, ko‘pincha ko‘chirma gapdagi gap bo‘laklarining tartibi dariy adabiy tilidagi gap bo‘laklari tartibining umumiy qoidasiga asoslanadi, ya’ni bosh bo‘laklarning tartibi ega+kesim formasida, to‘ldiruvchi bilan kesim tartibi to‘ldiruvchi+kesim formasida, hol bilan kesim tartibi esa hol+kesim formasida bo‘ladi.

Misollar:

دستش را از بغلش بیرون کرد و گفت :

— يك قلم دو رنگه براي تان آورده ام. (سپوژمي زرياب. خروس

من// www.afghanasamai.com)

Qo‘lini qo‘ynidan chiqardi va dedi:

— *Sizlarga ikki xil rangli qalam olib kelganman.*

و رویش را سوي من کرد و تضرع آمیز گفت :

- يك ساعت چپ بنشين! (سپوژمي زرياب. خروس من//www.afghanasamai.com)

Va yuzini men tomonga burib o'tinib dedi:

– *Bir pas jim o'tirgin!*

1.4. Muallif gapining sintaktik xususiyatlari

Muallif gapi ko'chirma gapni bevosita tekstga kiritish va uni turli jihatdan sharhlab berish uchun qo'llanadi. Bu uning eng asosiy vazifasidir.

Muallif gapi mazmunan va intonatsion tugallikka (o'z strukturasiga ko'ra mustaqillikka) ega emas. Muallif gapi ko'chirma gap bilan birga qo'llangandagina mazmunan va intonatsion tugallikka ega bo'ladi.

Muallif gapining kesimi nutq jarayoni bilan bog'langan ma'lum guruhdagi fe'llar (ko'pincha nutq va fikr fe'llari) orqali ifodalanadi. Ko'chirma gapning kesimi esa turli so'z turkumi orqali ifodalanishi mumkin.

Muallif gapining tarkibida modal so'zlar, undov va undalmalar qo'llanmaydi, ko'chirma gap tarkibida esa ular aktiv qo'llanadi.

Muallif gapi darak gap shaklida keladi, chunki uning kesimi xabar bildiruvchi fe'llar orqali ifodalanadi. Shunga ko'ra muallif gapi so'roq, buyruq va undov gap shaklida qo'llanmaydi. Ko'chirma gap esa ifoda maqsadiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin.

Muallif gapida gap bo'laklarining tartibi dariy adabiy tilidagi gap bo'laklari tartibining umumiy qoidasiga asoslanadi, ya'ni bosh bo'laklarning tartibi ega+kesim formasida, to'ldiruvchi bilan kesim tartibi to'ldiruvchi+kesim formasida, hol bilan kesim tartibi esa hol+kesim formasida bo'ladi:

باز آواز دل انگیزش بلند شد :

- چشم ها باز ! (سپوژمي زرياب. خروس من//www.afghanasamai.com)

YAna dilni quvontiruvchi ovozi yangradi:

– *Ko'zlar ochilsin!*

O'zbek tilida esa muallif gapi bilan ko'chirma gapning o'rinishi

(AK, KA, KAK, AKA¹⁰ tartibida kelishi)ga qarab, muallif gapidagi bosh bo‘laklarning joylashishi tartibi ham o‘zgaradi¹¹.

Muallif gapi ko‘pincha ixcham holatda keladi. Ko‘chirma gap esa istalgancha yoyiq kelishi mumkin.

1.4.1. Muallif gapining tuzilish xususiyati

Muallif gapi ko‘pincha ikki sostavli gapdan tashkil topadi. Bunda muallif gapining egasi yo so‘zlovchi, yo tinglovchi shaxs bo‘ladi. Muallif gapida so‘zlovchini ifodalaydigan ega boshqa turga nisbatan ko‘proq qo‘llanadi. Bunday muallif gapining kesimi asosan nutq jarayonini bildiradigan fe‘llar orqali ifodalanadi.

Masalan:

خویشاوند ما انگشت اشاره اش را تاپ تاپ به سینه اش زد و گفت :

- من خدا را می شناسم! (سپوژمي زرياب. خروس من// www.afghanasamai.com)

Qarindoshimiz ko‘rsatkich barmog‘ini ko‘ksiga tap-tap urdi va dedi:

– *Men xudoni taniyman!*

گفتم:

«ها دق شده بودم.»

پرسید:

«دلت برای من سوخته بود؟ حیفت آمده بود که خود مرا کشته بودم؟»

پاسخ دادم:

«ها دلم برایت تکه تکه شده بود.»

گفت:

«جگرت را خون مکن. من بر میگردم!» (ببرک ارغند. شراره <http://rawzana.com>)

(25.03.2004 /

Dedim:

«*Ha, sog‘inib siqilgan edim.*»

So‘radi:

¹⁰ Ishda quyidagi qisqartmalardan foydalanilmoqda: A – muallif (avtor) gapi, K – ko‘chirma gap.

¹¹ *Bu haqda qarang.* Saidniyozov A. Hozirgi zamon o‘zbek tilida ko‘chirma gapli konstruksiyalarning sintaktik xususiyatlari: Filol. fanlari nomzodi ... dis. – Toshkent, 1974.

«Yuraging men uchun kuydimi? O'zimni o'ldirganim uchun achindingmi?»

Javob berdim:

«Ha, yuragim sen uchun pora-pora bo'lgandi».

Dedi:

«Bag'ringni qon qilma. Men qaytaman!»

گفتمش:

« آرام باش، برو بخواب! تو خه او را نه کشته ای که این چنین اشک میریزی! تو خه برای

نجاش هر چی در توان داشتی کرده ای. ... » (ببرک ارغند. شراره <http://rawzana.com/>

(25.03.2004 /

(Unga) dedim:

«Tinchlan, bor uxla! Axir uni sen o'ldirmagansan-ku, bu qadar yosh to'kyapsan! Sen uni qutqarish uchun qo'lingdan kelganini qilding...».

Ayrim muallif gaplarining egasi so'zlovchi shaxsni emas, balki tinglovchi shaxsni ko'rsatishi mumkin. Bunday muallif gapi tuzilishiga ko'ra ikki sostavli gap bo'lib, kesimi eshitish ma'nosi bilan bog'liq bo'lgan fe'l orqali ifodalanadi. Bunday muallif gapini «u eshitdi» kabi umumiy sxematik tarzda ko'rsatish mumkin. Masalan:

... با عجله سوي اتاقتش رفت و شنيدم که مي گفت :

— معلم ما گفته که رسم این خروس را بکشیم. (سپوژمي زرياب. خروس من //

(www.afghanasamai.com)

...shoshib xonasi tomon yurdi va aytayotganini (gapini) eshitdim:

— O'qituvchimiz shu xo'rozning rasmini chizishimizni aytdi.

Muallif gapi shaxsi umumlashgan, nominativ, infinitiv gaplardan, shuningdek, so'z-gaplardan tuzilmaydi. Bir sostavli gapning bu turlarida bevosita nutq aktini ifodalaydigan fe'l-kesimlar ishtirok etmaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ko'chirma gapli tuzilmalarda muallif gapi faqat ikki sostavli yoki bir sostavli gaplardangina tuzilib qolmay, balki qo'shma gap tipida, qo'shma gapning ayrim turlaridan ham tuzilar ekan.

1.4.2. Muallif gapida gap bo‘laklarining tartibi

Dariy tilida muallif gapi ko‘chirma gapdan oldin keladi. Muallif gapidagi tartib odatdagi tartib bo‘ladi, ya’ni ega kesimga nisbatan oldinda birinchi o‘rinda turadi:

مدیر با بی باوری پرسید :

– کی ، پسر شما ؟

خانم باهمان آلمانی شکسته گفت :

– شما درباره پسرما مانند همیشه نظر منفی و قضاوت منفی دارید . (اسدالله حبیب. ترس از تنهایی).

Mudir ishonqiramay so‘radi:

– Kim, sizning o‘g‘lingizmi?

Xotinim nemis tilida o‘shanday buzib gapirdi:

– Siz o‘g‘limiz haqida hamma qatori salbiy fikrdasiz.

حیرت زده سوی شراره نگاه کرده گفتم:

« میبینی من میخوانم؟ » (ببرک ارغند. شراره / 25.03.2004 <http://rawzana.com/>)

Hayratlanib Sharoraga qarab dedim: «Ko‘ryapsanmi, men kuylayapman?»

O‘zbek tilida esa muallif gapi ko‘chirma gapdan oldin, ko‘chirma gap o‘rtasida va undan keyin keladi. Shunga ko‘ra muallif gapi gap bo‘laklarining tartibi ham turlicha bo‘ladi. O‘zbek tilida muallif gapining egasi *tovush*, *ovoz* kabi otlar, kesimi eshituv fe‘llari orqali ifodalansa, ko‘chirma gap bilan muallif gapining pozitsiyasidan qat’i nazar, muallif gapi bosh bo‘laklarining tartibi ega+kesim formasida bo‘ladi.

Dariy va o‘zbek tillarida muallif gapida gap bo‘laklarining tartibini o‘rganish asosida shunday xulosaga kelish mumkin: muallif gapidagi bosh bo‘laklarning o‘rinlashish tartibi, asosan, muallif gapining ko‘chirma gapli tuzilma tarkibidagi pozitsiyasiga bog‘liqdir. Dariy tilida muallif gapi ko‘chirma gapdan oldin keladi va undagi bosh bo‘laklar to‘g‘ri tartibda (ega+kesim sxemasida) joylashadi. O‘zbek tilida esa muallif gapi ko‘chirma gapdan oldin kelsa, undagi bosh bo‘laklar ega+kesim shaklida, agar muallif gapi ko‘chirma gapdan keyin yoki uning ichida kelsa, undagi bosh bo‘laklar tartibi odatda kesim+ega shaklida bo‘ladi.

1.5. Muallif gapi bilan ko'chirma gapni biriktiruvchi vositalar

Muallif gapi bilan ko'chirma gap o'zaro biriktiruvchi vositalar orqali munosabatga kirishadi. Ko'chirma gapli tuzilma komponentlarining bir-biriga bog'lanish xususiyati esa o'ziga xos xarakterga ega.

Ko'chirma gap muallif gapi bilan mazmun va grammatik jihatdan o'zaro bog'langandir. Bunda, asosan, muallif gapi tarkibida kesim bo'lib kelgan nutq fe'llari ko'chirma gapli tuzilmani uyushtiruvchi markaz hisoblanib, ko'chirma gap bilan muallif gapini ma'lum darajada o'zaro biriktirishga xizmat qiladi.

Bunday nutq fe'llariga گفتن *demoq*, اytmoq, *gapirmoq*, so'zlamq, پرسیدن *so'ramoq*, جواب دادن / پاسخ دادن *javob bermq*, فرمودن *buyurmoq*, کردن *takrorlamoq*, فریاد کردن *ta'kidlamoq*, فریاد زدن *qichqirmoq*, xitob qilmoq, کسی *ovozi* آواز کسی بلند شدن *faryod ko'tarmoq* (faryodi ko'tarilmoq) yoki صدا زدن *ko'tarilmoq*, آواز کسی بلند شدن *ovozi (baland) ko'tarilmoq* (yangramoq), در ادامه افزودن *qo'shimcha qilmoq*, افزودن *chaqirmoq*, زمزمه کردن *xirgoyi qilmoq*, از دهان *davom ettirmoq*, ادامه کردن *davom ettirib demoq* (qo'shimcha qilmoq), غریدن *og'zidan chiqmoq*, خبر دادن *xabar qilmoq*, غریدن *shang'illamoq*, bobillamoq kabi so'zlash (gapirish) bilan bog'liq bo'lgan fe'llar kiradi:

... با اشتیاق و بریده بریده گفت :

- اگر در دنیا رنگ نمی بود... اگر جهان رنگ نمی داشت... خدا رنگ را آفرید... (سپوژمي

زریاب. خروس من// www.afghanasamai.com)

...ma'yuslik bilan va uzuq-yuluq dedi:

- Agar dunyoda rang bo'lmaganda edi... . Agar olam rangin bo'lmaganda edi... . Xudo rangni yaratdi...

بر درگاه آشپزخانه ایستاد و تقریباً فریاد زد :

- چشم ها پت ! خروس رسید ! (سپوژمي زریاب. خروس من// www.afghanasamai.com)

Oshxona ostonasida to'xtadi va hayqirib yubordi:

- Ko'zlar yumilsin! Xo'roz etib keldi!

دخترش گفتش :

«مادر شکر خدا ره کو که همی رام به ما داده بودن . پدرم اگر واسطه نه می کرد و پیش ای رفیق و او رفیق نه می رفت، کسی همی دو اتاقه رام به ما نه می داد. همه گی مست جان خود شده ن .» (ببرک ارغند. شراره / 25.03.2004 <http://rawzana.com/>)

Qizi unga dedi: «Xudoga shukur qil, shuni ham bizga berganlariga...».

Keltirilgan misollardan ko‘chirma va muallif gaplarining fikriy va intonatsion jihatdan mustahkam aloqada ekanligi bilinib turibdi. Bayon qilinayotgan fikrni to‘liq ifodalash uchun ham har ikki komponentning bo‘lishi talab qilinadi. Misollardagi nutq fe’llarining ko‘chirma gapli tuzilmalarni uyushtiruvchilik kuchi ularning leksik ma’nosi bilan bog‘liq. Nutq fe’llari o‘zining o‘timliligi, fikriy tugallikka ega emasligi tufayli ko‘chirma gap bilan muallif gapini biriktiruvchi vosita sifatida qatnashadi.

demoq fe’lining formalari ko‘chirma gap bilan muallif gapinining o‘zaro birikishini ta’minlaydigan nutq fe’llaridan eng aktividir. Dariy tilidagi materiallarimiz tahlilida B. Arg‘andning asarlarida A.R. Zaryob, S.R. Zaryob, A. Habib, A.U. Ko‘zagar asarlaridan farqli *demoq* fe’lining enklitik olmoshlar bilan qo‘llanishi kuzatildi:

دخترش گفتش :

«مادر شکر خدا ره کو که همی رام به ما داده بودن...» . (ببرک ارغند.

شراره / 25.03.2004 <http://rawzana.com/>)

Qizi unga dedi: «Xudoga shukur qil, shuni ham bizga berganlariga...».

مادر می گفتش :

«دخترم ، از مه بشنو و بدان که دوست همه کس ، دوست هیچکس نیس . دوستانِ پدرت ، دوستِ

همه کس بودن !» (ببرک ارغند. شراره / 25.03.2004 <http://rawzana.com/>)

Onasi unga derdi: «(Mendan) eshit va bilki, barchaga do‘st hech kimga do‘st emas. Otangning do‘stlari barchaga do‘st edilar!»

گفتمش: « آرام باش، برو بخواب! » (ببرک ارغند. شراره <http://rawzana.com/>)

/ (25.03.2004

Unga dedim: «Tinchlan, bor (qani), uxla!»

ke ke o‘zaro komponentlari tuzilma gapli ko‘chirma tilida Dariy

bog'lovchisi orqali ham birikadi:

جوان فریاد می زند که " من بیگناه هستم " و شاه لحظه یی خوردن و آشامیدن را متوقف ساخته و با خشم و تعجب سوبیش می نگردد و می پرسد: " چه طور می توانی بی گناهییت را ثابت کنی ؟ " جوان فریاد می زند که " اگر این مرگی را که می خورید زنده شود و پرواز کند ، بی گناهی مرا قبول خواهید کرد؟ " (سپوژمی زیراب. خروس من//www.afghanasamai.com)

Yigit «Men begunohman», deb faryod uradi va shoh bir zum emoq-ichmoqdan to'xtab, g'azab va taajjub bilan unga qaradi va so'radi: «Gunohsizligingni qanday isbotlay olasan?»

Yigit aytadi: «Agar siz eyayotgan shu tovuq tirilib parvoz qilsa, mening begunohligimni qabul qilasizmi?»

استادان پوهنتون پیام نور از من پرسیدند که چگونه امکان دارد که تو یک افغانی در تاریخی بیهقی از بیست، هژده و نیم گرفتی؟ (ریشه لغوی زبان دری)

«Payom-e nur» universitetining o'qituvchilari mendan so'radilar: «Sen bir afg'on, qanday qilib Bayhaqiy tarixi bo'yicha 20 (ball)dan 18,5 (ball) olding?»

Ko'chirma gapdan oldin bu bog'lovchi tushib qolishi mumkin:

من از دوستم پرسیدم (که) برادرت کجا است؟

Do'stimdan so'radim: «Akanq qayerda?»

Ma'lumki, o'zbek tilida ham -ki yordamchisi o'zlashtirma gapni ifodalash uchun emas, balki ko'chirma gapni muallif gapi bilan bog'lash uchun xizmat qiladi. (I.A. Kissen fikricha, o'zbek tilida -ki bog'lovchisi o'zlashtirma gapni ifodalash uchun qo'llanadi¹².)

A.N. Kononov ham -ki bog'lovchisining bu xususiyati haqida quyidagicha yozadi: «Bu bog'lovchi o'zgalar gapini ko'chirib berish uchun ham xizmat qiladi»¹³.

-ki bog'lovchisi faqat qo'shma gaplarda qo'llanish bilan chegaralanmaydi, u ko'chirma gapli tuzilma komponentlarini biriktiruvchi birdan-bir grammatik vosita hisoblanadi. SHunday misollar ham bo'ladiki, bunda -ki yordamchisidan keyin ikki nuqta qo'yilib, o'zganing gapi

¹² Киссен И.А. Грамматика узбекского языка. – Т., 1941. Ч.2. – С.55.

¹³ Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М.-Л., 1960. – С.330.

qo'shtirnoq ichida beriladi:

U dediki, «Bir kunga

Muhlat olgan yorimni

Qo'ldan berdim va unga

Qurbon qildim borimni...»¹⁴.

Komponentlari *-ki* yordamchisi orqali birikadigan ko'chirma gapli tuzilmalarda muallif gapi juda ixcham tuzilgan bo'lib, ko'pincha yig'iq gap (ba'zan fe'l-kesimdangina shakllangan bir sostavli gap) shaklida qo'llanadi.

Hozirgi o'zbek tilida *-ki* ko'chirma gap bilan muallif gapini biriktiruvchi vosita sifatida demoq fe'lining formalariga nisbatan ancha kam ishlatiladi.

Ko'chirma gap bilan muallif gapini bog'lashda biriktiruvchi intonatsiya ham muhim rol o'ynaydi. Ko'chirma gap bilan muallif gapini biriktiruvchi grammatik vositalar ishtirok etmasa, bu komponentlarni tutashtiruvchi asosiy vosita intonatsiya hisoblanadi. Bunda ko'chirma gapning o'ziga xos intonatsiyasini emas, balki ko'chirma gap bilan muallif gapining o'zaro munosabatidan kelib chiqadigan biriktiruvchi intonatsiyani nazarda tutamiz.

Muallif gapini talaffuz qilib to'liq to'xtab qolish mumkin emas, chunki muallif gapidan keyin beriladigan pauza gapga boshqa xabar (ko'chirma gap) kiritilishidan darak beruvchi pazadir. Shu sababli ham muallif gapi to'liq pasayib boruvchi intonatsiya bilan talaffuz etilmaydi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, dariy tilida muallif gapi ko'chirma gapdan oldin kelib, fikriy va intonatsion tugallikka ega emas. Muallif gapining bunday xarakterga ega bo'lishini kesim bo'lib kelgan nutq fe'llari ta'minlaydi, chunki o'z ma'nolariga ko'ra fikriy tugallikni ifodalamaslik va shu tufayli nutqqa o'zgalar gapi kiritilishini ogohlantiruvchi intonatsion ottenkalarga ega bo'lishlik nutq fe'llariga xosdir.

¹⁴ H.Olimjon. Balladalar, poemalar, pyesalar. – T., 1958. T.2. – B.120.

IKKINCHI BOB

DARIY TILIDA O‘ZLASHTIRMA GAP VA UNING IFODALANISHI

O‘zganing gapi o‘zlashtirma gap shaklida berilishi ham mumkin. Bunda muallif boshqalarning gapini grammatik va ayrim leksik xususiyatlarini o‘zgartgan holda o‘zlashtirib, hikoya qilib beradi. O‘zlashtirma gap ko‘chirma gapdan intonatsiyasi va ayrim fe’l formalarining ishlatilmasligi bilan ham ajralib turadi. Masalan, o‘zbek tilida *demoq* fe’lining ko‘chirma gapda juda ko‘p ishlatiladigan *deb, dedi, deydi, degan edi* kabi shakllari o‘zlashtirma gapda deyarli qo‘llanmaydi. Uning o‘rnida bu gaplarda ko‘proq *aytmoq, gapirmoq* fe’llari ishlatiladi.

Ko‘chirma gap, o‘z sostavida necha gap borligidan qat’i nazar, o‘zlashtirma gapga aylantirilganda, birgina birikmali sodda gap holiga keltiriladi. O‘zlashtirma gapda muallif gapining bosh bo‘laklari (ba’zan ikkinchi darajali bo‘laklari ham) saqlanib, ko‘chirma gap birikmali to‘ldiruvchiga aylanadi. Masalan: «*Har soatni ganimat bil*»,— *dedi Sakson ota. (O.)* Bu ko‘chirma gap o‘zlashtirma gapga aylantirilsa, undagi ikki sodda gap (1. *Sen har soatni ganimat bil.* 2. *Sakson ota dedi*) bir sodda gapga, ko‘chirma gap esa birikmali to‘ldiruvchiga aylanadi: *Sakson ota har soatni ganimat bilish kerakligini aytdi.*

Dariy tilida ko‘chirma gapli tuzilmalarda ham, o‘zlashtirma gaplarda ham ^{ke} ke bog‘lovchisi ishlatilishi mumkin. ^{ke} ke bog‘lovchisining ergashgan qo‘shma gaplar uchun ham xosligi ma’lum. ^{ke} ke urg‘u olmaydi va o‘zidan oldin yoki keyin kelgan so‘z bilan intonatsion jihatdan birikadi. Dariy tilida ko‘chirma gap o‘zlashtirma gapga aylantirilganda, to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gapga to‘g‘ri keladi:

... مرا به دفتر شان خواستند و گفتند که به ننگرهار بروم و از آن کاوشهای باستانشناسیک که در

" هده " جریان داشت ، گزارش می تهیه کنم . (رهنورد زریاب. زیبایی زیر خاک خفته)

Meni idoraga chaqirdilar va Nangarhorga borishimni, «Hadda»da olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlar haqida hisobot tayyorlashimni aytdilar.

2.1. Darak mazmunini ifoda etuvchi ko‘chirma gap asosidagi o‘zlashtirma gap

Ma’lumki, o‘zbek tilida ko‘chirma gap darak xarakterida bo‘lsa, o‘zlashtirma gapga aylantirilganda, ko‘chirma gapning kesimi o‘tgan, hozirgi, kelasi zamon fe’li yoki ot-kesim bilan ifodalanganiga ko‘ra quyidagicha o‘zgaradi:

– *Qodirov bu tadbirlarni yoqladi, – dedi Oyqiz. (Sh. R.)–Oyqiz bu tadbirlarni Qodirov **yoqlagan(lig)ini** aytdi.*

– *G‘o‘zalarimiz barvaqt gullayotir, – dedi chol. – Chol g‘o‘zalarning barvaqt **gullayotganligini** aytdi.*

– *O‘qishni tugatib, Moskvaga borajakman, – dedi Xalil. – Xalil o‘qishni tugatib, Moskvaga **borajakligini** aytdi.*

– *Qo‘lim baland, belim baquvvat, – dedi Umrzoq ota. (Sh. R.)–Umrzoq ota qo‘li baland, beli **baquvvat ekanligini (baquvvatligini)** aytdi.*

Demak, ko‘chirma gapni o‘zlashtirma gapga aylantirganda, ko‘chirma gapdagi fe’l kesimning zamoni deyarli o‘zgarmaydi: 1. – *Men **paxta terayotirman**, – dedi. – U paxta terayotganligini aytdi.* 2. – ***Men paxta terdim**, – dedi u. – U paxta terganligini aytdi.* 3. ***Men paxta teraman**, – dedi u. – U paxta terishini (terajakligini) aytdi.*

Misollarning birinchisida ko‘chirma gapda hozirgi zamon shaklidagi fe’l kesim (*terayotirman*) o‘zlashtirma gapda hozirgi zamon sifatdoshi (*terayotganligini*) bilan, ikkinchi misolda o‘tgan zamon formasidagi fe’l kesim (*terdim*) o‘tgan zamon sifatdoshi (*terganligini*) bilan, uchinchi misolda esa hozirgi-kelasi zamon shaklidagi fe’l kesim (*teraman*) kelasi zamon sifatdosh formasi (*terajakligini*) bilan almashgan.

Ko‘chirma gapni o‘zlashtirma gapga aylantirishda ko‘chirma gapdagi fe’l kesimning shaxs qo‘shimchasi yoki kishilik olmoshi o‘zgarishi mumkin.

Ko‘chirma gapning sub’ekti birinchi shaxs kishilik olmoshi bilan, muallif gapining egasi esa har uchala shaxsdagi kishilik olmoshlari (*men, sen, u*) bilan ifodalansa, o‘zlashtirma gap sostavida bu olmoshlarning biri tushib qoladi.

Men aytdim: – (Men) kitobni o‘qiyman.

Sen aytding: – (Men) kitobni o‘qiyman.

U aytdi: – (Men) kitobni o‘qiyman.

Bu gaplarning o‘zlashtirma gap shakli quyidagicha:

Men kitobni o‘qishligimni aytdim.

Sen kitobni o‘qishligingni aytding.

U kitobni o‘qishligini aytdi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, dariy tilida o‘zlashtirma gap to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gapga to‘g‘ri keladi. Agar bosh va ergash gapning egasi bir shaxs bo‘lsa, bosh gap tarkibida qayd qilinadi, ergash gapda esa tushib qoladi. Masalan, yuqorida keltirilgan gaplar dariy tiliga quyidagicha tarjima qilinadi:

من گفتم که کتاب می خوانم.

تو گفتی که کتاب می خوانی.

او گفت که کتاب می خواند.

Biroq dariy tilida ko‘chirma gapli tuzilmalarda ham, o‘zlashtirma gaplarda ham ke ke bog‘lovchisining qo‘llanishi ikki xil mazmun (odatda, agar bosh va ergash gapning egasi turli shaxs bo‘lsa) anglatishi mumkin. Masalan:

نبی به من گفت که تو ناجور هستی.

Nabi menga dedi: «Sen kasalsan».

Nabi menga sening kasalligingni aytdi.

Dariy tilida punktuatsiya qoidalarining ishlab chiqilmagani nutqiy matndan tashqari bu kabi tarjimalarda anglashilmovchilik tug‘diradi.

او گفت که از این پس، با انرژی بیشتری به کارهای خود ادامه میدهد. («شبهای کابل»)

U bundan buyon bor kuchi bilan ishlarini davom ettirajakligini aytdi.

...او در طول مصاحبه روی «رنالیسم جادویی» بسیار تأکید داشت و می‌گفت این سبک برای

کشور شما بسیار مفید خواهد بود. (مصاحبه با استاد رهنورد زریاب، نویسنده و منتقد/28/4/1385)

U «sehrli realizm» bo‘yicha suhbat davomida bu uslub bizning mamlakatimiz uchun juda foydali bo‘lishini ta’kidlardi va aytardi.

گفت که حضور کمرنگ زن در جامعه داستانهای محمدی، واقعیت حقیقی ماست که محمدی آن را

به درستی نشان داده است. («شبهای کابل»)

2.2. So‘roq mazmunini ifoda etuvchi ko‘chirma gap asosidagi o‘zlashtirma gap

Ko‘chirma gap so‘roq mazmunini ifodalasa, muallif gapining kesimi qanday fe‘l bilan ifodalanganiga qaramay, o‘zlashtirma gapning kesimi faqat *so‘ramoq* fe‘li orqali beriladi. Masalan, o‘zbek tilida:

– *Majlis boshlandimi?* – *deb so‘radi u. U so‘radi: – Majlis boshlandimi?*

Bu gaplarning o‘zlashtirilgan shakli: *U majlis boshlangan-boshlanmaganini so‘radi.*

Dariy tilida ko‘chirma gapli tuzilmalarda ham, o‘zlashtirma gaplarda ham ke bog‘lovchisining qo‘llanishi sababli, bunday gaplar (bosh va ergash gapning egasi qaysi shaxsda ifodalanganiga ko‘ra) o‘zbek tiliga ko‘chirma yoki o‘zlashtirma gap tarzida tarjima qilinishi mumkin:

من از دوستم پرسیدم (که) برادرم کجا است؟

Do‘stimdan so‘radim: «Akam qayerda?»

Do‘stimdan akam qayerdaligini so‘radim.

Quyida keltirilayotgan matn B.Ya. Ostrovskiyning «Uchebnik yazыka dari» (Moskva, 2004) darsligida o‘zlashtirma gap mavzusiga misol tarzida berilgan. Biroq materiallarimiz tahlilida quyidagi holatlar uchun ko‘chirma gap ham deyilishi mumkin.

Masalan:

معلم از ما پرسید که آیا امروز همه حاضر هستند؟ ما جواب دادیم که یک نفر غیر حاضر است. معلم علت آن را پرسید و ما جواب دادیم که آن محصل کمی مریض است. معلم پرسید که او چه مریضی دارد؟ ما گفتیم که به گمان ما آن محصل گریپ دارد.

...وقتیکه ترجمه آن جمله تمام میشد معلم از ما میپرسید که آیا جمله روی تخته درست است یا

غلط؟

O‘qituvchi bizdan bugun hamma bor-yo‘qligini so‘radi. Biz bir kishi yo‘qligini aytdik. O‘qituvchi sababini so‘radi va biz u talabaning bir oz tobi yo‘q, deb javob berdik. O‘qituvchi uning qanday kasalligini so‘radi. Biz dedik: «Bizningcha, u talaba gripp bo‘lsa kerak».

... Jumlaning tarjimasi tugaganida, o'qituvchi bizdan so'rardi: «Doskadagi jumla to'g'rimi yoki yo'q?»

Biroq oxirgi gapni «Jumlaning tarjimasi tugaganida, o'qituvchi bizdan doskadagi jumla to'g'ri yoki yo'qligini so'rardi», deb ham tarjima qilish mumkin. Chunki dariy tilida so'roq gap tartibi (odatda, savol alomati bilan birga) hech bir o'zgarishsiz o'zlashtirma gapga aylanadi. Materiallarimizda so'roq alomati qo'yilmagan holatlar ham uchradi:

پرسید دیگری چه شد (پایان زندگی نورجهان// www.afghanasamai.com)

Keyin nima bo'lganini so'radi.

Bosh va ergash gapning egasi turli shaxs bo'lsa, ko'chirma va o'zlashtirma gap turlicha beriladi. Masalan:

مأمور پرسید که اسم من چیست؟

Xizmatchi mendan ismimni so'radi (o'zlashtirma gap)

مأمور پرسید (که) است چیست؟

Xizmatchi so'radi: «Isming nima?» (ko'chirma gap)

مادرم پرسید که ما کجا بودیم؟

Onam bizning qayerda bo'lganimizni so'radi (o'zlashtirma gap)

مادرم پرسید که شما کجا بودید؟

Onam so'radi: «Siz qayerda edingiz?» (ko'chirma gap)

2.3. Buyruq mazmunini ifoda etuvchi ko'chirma gap asosidagi o'zlashtirma gap

Ma'lumki, o'zbek tilida buyruq gaplar o'zlashtirilganda, uning buyruq maylidagi fe'l kesimi ish oti formasi + egalik affiksi + kerak (lozim, zarur) + (ekan)ligini shaklini oladi: – Maslahat esdan chiqmasin, — dedi Durbek. – Durbek maslahat esdan chiqmasligi kerakligini aytdi.

Dariy tilida bu holatda hozirgi-kelasi zamon shart-istak mayli ishlatiladi.

به من و برادر من می گفت که رسم های خود را بکشیم. (سپوژمی زریاب. خروس

من// www.afghanasamai.com)

Men va akamga rasmlarimizni chizishimizni aytardi.

Ko'chirma gap o'zlashtirma gapga aylantirilganda, uning shakligina emas, ba'zan stilistik xususiyatlari ham o'zgaradi. Ayniqsa, so'zlovchining nutq protsessiga turli munosabatini ifodalovchi so'zlar, ekspressiv so'zlar tushib qoladi. Odatda bunday so'zlar gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan bog'lanmagan bo'ladi. Masalan:

مدیر آمرانه گفت :

– بفرمایید ، داخل شوید . (اسدالله حبیب . ترس از تنهایی.)

«Mudir buyruq ohangida dedi:

– Qani, marhamat, ichkariga kiring» gapini o'zlashtirma gapga aylantirilsa, *marhamat* so'zi tushib qoladi: بفرمایید

مدیر آمرانه گفت که داخل شویم.

XULOSA

Mazkur bitiruv malakaviy ishi hozirgi dariy tilida ko'chirma gapli tuzilma va o'zlashtirma gaplarga bag'ishlangan bo'lib, bu mavzu dariy tilshunosligida tadqiqot ob'ekti bo'lmagan. Tadqiqot ishida hozirgi dariy adabiy tilida ko'chirma gapli tuzilmalar, ularning qo'llanilishida punktuatsiya qoidalariga qay tarzda amal qilinishi, ko'chirma gapli tuzilmalar va o'zlashtirma gaplarni tarjima qilishda ahamiyat berilishi lozim bo'lgan jihatlar o'rganildi. Tahlillar quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon berdi:

1. Ko'chirma gap bilan muallif gapining bir butun sintaktik birlik ekanligini nazarda tutgan holda, bu butunlikka nisbatan ko'chirma gapli tuzilma terminini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

2. Aytilgan (talaffuz qilingan) yoki eshitilgan voqeani ifodalaydigan ko'chirma gaplar real ko'chirma gaplardir, so'zlanmagan, faqat o'ylangan, mo'ljallangan voqeani bildiradigan ko'chirma gaplar irreal ko'chirma gaplardir.

3. Ko'chirma gapning o'ziga xos sintaktik xususiyatlari muallif bayonidan farqli ravishda, asosan, nutqiy muomalada yuz beradigan fikr almashish shart-sharoiti bilan belgilanadi. Demak, ko'chirma gap so'zlashuv tilining xilma-xil struktura va intonatsion xususiyatlarini aks ettiradi.

4. Muallif bayoniga nisbatan ko'chirma gapda so'roq, buyruq va emotsional gaplar ko'p qo'llanadi. Bunday gaplar kuzatilgan maqsad bilan bog'langan o'ziga xos grammatik va intonatsion xususiyatlarga juda boy. Shuning uchun ham personaj nutqi ifodali, jonli va emotsional xarakterga ega bo'ladi.

5. Ko'chirma gaplar strukturasiga ko'ra juda xilma-xil bo'lib, ikki sostavli yoki bir sostavli, to'liq yoki to'liqsiz, sodda yoki qo'shma gaplardan tuzilishi mumkin.

6. Ko'chirma gapdagi gap bo'laklarining tartibi adabiy dariy tilidagi odatdagi tartibga asoslanadi. Ba'zan ko'chirma gapdagi gap bo'laklarining inversiyaga uchrashi ko'chirma gapning jonli so'zlashuv nutqi ekanligi bilan

izohlanadi.

7. Muallif gapining asosiy funksiyasi ko'chirma gapni tekstga, nutqqa kiritish va uni turli jihatdan baholashdir. Uning darak gap formasida qo'llanishi kesimning faqat xabar bildiruvchi fe'llar orqali ifodalanishi bilan izohlanadi. Muallif gapining kesimi ko'pincha so'zlashish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan nutq fe'llari bilan ifodalanadi. Nutq fe'llari o'zining o'timliliigi, fikriy tugallikka ega emasligi tufayli ko'chirma gap bilan muallif gapini biriktiruvchi vosita sifatida qatnashadi. Misollarimizda bunday nutq fe'llaridan گفتن *demoq*, aytmoq, gapirmoq, so'zlamoq, پرسیدن *so'ramoq*, جواب دادن / پاسخ دادن *javob bermoq*, تأکید کردن *takrorlamoq*, تکرار کردن *buyurmoq*, فرمودن *bermoq*, فریاد کسی بلند شدن *faryod ko'tarmoq* (*faryodi ko'tarilmoq*) yoki آواز کسی بلند شدن *ovozi ko'tarilmoq*, صدا زدن *chaqirmoq*, فریاد زدن *ta'kidlamoq*, فریاد زدن *qichqirmoq*, xitob qilmoq, xirgoyi qilmoq, زمزمه کردن *xirgoyi qilmoq*, ادامه افزودن *qo'shimcha qilmoq*, ادامه کردن *davom ettirmoq*, از دهان جھیدن *davom ettirib demoq* (*qo'shimcha qilmoq*), خبر دادن *og'zidan chiqmoq*, غریدن *xabar qilmoq*, bobillamoq kabi fe'llar ko'p uchradi.

8. Muallif gapining tuzilishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. O'zbek tilida muallif gapining bir sostavli gaplardan tuzilishi ancha kam uchraydi. Materiallarimiz tahlili davomida dariy tilida bir sostavli gapdan tuzilgan muallif gapi tipik holat ekanligi kuzatildi. Bu, albatta, dariy tilida muallif gapining o'zbek tilidan farqli faqat ko'chirma gapdan oldin kelishi bilan izohlanadi. Bir sostavli gapdan tuzilgan muallif gapi asosan shaxsi aniq gaplardir. Shaxsi aniq gapdan tuzilgan muallif gapining kesimi nutq fe'llari, shuningdek, fikr fe'llari orqali ifodalanadi.

Muallif gapi shaxsi umumlashgan, nominativ, infinitiv gaplardan, shuningdek, so'z-gaplardan tuzilmaydi, chunki bunday gaplarda bevosita nutq aktini ifodalaydigan fe'l-kesimlar ishtirok etmaydi. Muallif gapi tarkibida undov, undalma va kirish so'zlar qo'llanmaydi.

So'zlovchi haqida yoki uning fikri to'g'risida muallif bermoqchi bo'lgan

ma'lumot hajmiga ko'ra eng soddadan eng murakkab strukturali gaplargacha bo'lish mumkin.

9. Ko'chirma gapli tuzilma komponentlari nutq fe'llari, shuningdek, كه ke bog'lovchisi va intonatsiya orqali birikadi.

10. Dariy tilida ko'chirma gap bilan muallif gapining o'zaro o'rinlashishi AK sxemasida, o'zbek tilida esa turlicha (AK, AKA, KA, KAKA, AKAK, KAKAK, AKAKA, AKAKAK, KAKAKA tipida) bo'ladi. O'zbek tilshunoslarining fikricha, o'zbek adabiy tilining to'xtovsiz rivojlanib borishi tufayli muallif gapining ko'chirma gapni izohlash funksiyasining kengayib borishi ko'chirma gap bilan muallif gapining o'zaro o'rinlashishiga ta'sir eta boshladi, natijada muallif gapi ko'chirma gapdan keyin va uning o'rtasida qo'llanadigan bo'ldi.

11. Dariy va o'zbek tillarida muallif gapida gap bo'laklarining tartibini o'rganish asosida shunday xulosaga kelish mumkin: muallif gapidagi bosh bo'laklarning o'rinlashish tartibi, asosan, muallif gapining ko'chirma gapli tuzilma tarkibidagi pozitsiyasiga bog'liqdir. Dariy tilida muallif gapi ko'chirma gapdan oldin keladi va undagi bosh bo'laklar to'g'ri tartibda (ega+kesim sxemasida) joylashadi. O'zbek tilida esa muallif gapi ko'chirma gapdan oldin kelsa, undagi bosh bo'laklar ega+kesim shaklida, agar muallif gapi ko'chirma gapdan keyin yoki uning ichida kelsa, undagi bosh bo'laklar tartibi odatda kesim+ega shaklida bo'ladi.

12. Dariy tilida ko'chirma gapli tuzilmalarda ham, o'zlashtirma gaplarda ham كه ke bog'lovchisi ishlatilishi mumkin. كه ke bog'lovchisining ergashgan qo'shma gaplar uchun ham xosligi ma'lum. Dariy tilida ko'chirma gap o'zlashtirma gapga aylantirilganda, to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapga to'g'ri keladi.

Biroq dariy tilida ko'chirma gapli tuzilmalarda ham, o'zlashtirma gaplarda ham كه ke bog'lovchisining qo'llanishi ikki xil mazmun (odatda, agar bosh va ergash gapning egasi turli shaxs bo'lsa) anglatishi mumkin. Masalan:

نبی به من گفت که تو ناجور هستی.

Nabi menga dedi: «Sen kasalsan».

Nabi menga sening kasalligingni aytdi.

Dariy tilida punktuatsiya qoidalarining ishlab chiqilmagani nutqiy matndan tashqari bu kabi tarjimalarda anglashilmovchilik tugʻdiradi. Materiallarimiz tahlilida koʻchirma gapli tuzilmalarda muallif gapi bilan koʻchirma gapni berishda tinish belgilarining turlicha qoʻllanilishi kuzatildi. Baʼzi mualliflar (: –), ayrimlari dialog shaklida ham (: «»), shuningdek, hech qanday tinish belgisiz faqat (:) yoki ke bogʻlovchisidan foydalanganlar. Baʼzan esa muallif gapi bilan koʻchirma gap hech qanday vositasiz beriladi (پرسید دیگری چه شد kabi).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov asarlari:

1. Karimov I. Istiqlol va ma’naviyat. – T.: O‘zbekiston, 1994.
2. Karimov I. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.
3. Karimov I. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. – T.: O‘zbekiston, 2009.

O‘zbek tilidagi adabiyotlar:

4. Asqarova M. Hozirgi zamon o‘zbek tilida qo‘shma gaplar. – Toshkent, 1960.
5. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O‘zbek tili. – Toshkent, 1966.
6. Saidniyozov A. Hozirgi zamon o‘zbek tilida ko‘chirma gapli konstruksiyalarning sintaktik xususiyatlari: Filol. fanlari nomzodi ... dis. – Toshkent, 1974.
7. O‘zbek tili grammatikasi. Sintaksis. – T.: Fan, 1976.
8. G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. – T.: O‘qituvchi, 1965.
9. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.
10. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. – T.: Fan, 1966.

Rus tilidagi adabiyotlar:

11. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М.-Л., 1960.
12. Милих М.К. Конструкция с прямой речью в современном русском языке: Автореф. дис. ... докт. филол. наук. – Л., 1962.
13. Островский Б.Я. Учебник языка дари. Част 1. – Москва: Муравей, 2004.
14. Решетов В.В. Основы фонетики и грамматики узбекского языка. – Ташкент, 1965.

- 15.Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. – М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 2001.

Dariy tilidagi adabiyotlar va manbalar:

16. نگهت سعیدی م.ن. دستور زبان معاصر دری. - کابل، 1969
17. محمدالله لطیف. دستور زبان دری نحو. کابل. ۱۹۸۲.

Manbalar:

1. سپوږمي زرياب. خروس من.(2009.01.06)
2. ببرک ارغند. شراره. (پنجشنبه 6 حمل 1383 25 مارچ 2004)
3. ببرک ارغند. لبخند شیطان. (2011.06.10 ؛ نشر : 2011.06.15)
4. محمد اکرم عثمان .وقتیکه نی ها گل میکنند. (جنوری 2006)
5. اسدالله حبیب. ترس از تنهایی. (هامبورگ ، 1 جون 2006)
6. رهنورد زریاب. زیبای زیر خاک خفته. (22.02.2009)
7. مصاحبه با استاد رهنورد زریاب، نویسنده و منتقد/28/4/1385

Internet saytlari:

1. www.afghanland.com
2. www.afghana.com
3. www.afghanpaper.com
4. www.kabulnath.de
5. www.rushnoi.com
6. www.raziqfaani.com
7. www.pajhwok.com
8. www.rawzana.com
9. www.ppazhwak.hozhaber.com
10. www.afghanasamai.com
11. www.nai.com
12. www.ayanda.org